

BIOGEOGRAFIYA - GEOGRAFIYA VA EKOLOGIYA ORASIDAGI FAN*Norqulova Sevinch**Qarshi davlat universiteti talabasi*

Anotatsiya: Bu maqolada biogeografiyaning fanlar tizimidagi o'rni va uning geografiya va ekologiya bilan aloqasi haqida tahlil qilingan. Biogeografiyaning asosiy vazifasi tadqiqot obekti va metodologik yondashuvi bayon etiladi. Shu bilan birga geografik va ekologik birlashtiruvchi zamonaviy ilmiy ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: Biogeografiya, geografiya, ekologiya, biologik xilma-xillik, ekotizim, lanshaft, iqlim, relyef, tabiiy zonalik

БИОГЕОГРАФИЯ — НАУКА МЕЖДУ ГЕОГРАФИЕЙ И ЭКОЛОГИЕЙ*Норкулова Севинч – студентка**Каршинского государственного университета*

Аннотация: В статье анализируется место биogeографии в системе наук и её взаимосвязь с географией и экологией. Описываются основная задача биogeографии, объект исследования и методологический подход. Также освещается её современное научное значение, сочетающее в себе географические и экологические аспекты.

Ключевые слова: Биogeография, география, экология, биоразнообразие, экосистема, ландшафт, климат, рельеф, природное зональность.

BIOGEOGRAPHY - A SCIENCE BETWEEN GEOGRAPHY AND ECOLOGY*Norqulova Sevinch**student at Karshi State University*

Abstract: This article analyzes the place of biogeography in the system of sciences and its relationship with geography and ecology. The main task of biogeography, the object of research and methodological approach are described. At the same time, its modern scientific significance, which combines geographical and ecological, is highlighted.

Keywords: Biogeography, geography, ecology, biodiversity, ecosystem, landscape, climate, relief, natural zoning

Bizni o'rab turgan tabiatimiz haqida bilimni bizga eng avvalo geografiya va ekologiya beradi. Bu fanlarni birlashtirsak biogeografiya fanimiz shakllanadi. Bu fan tirik tirik organizmlarning yer yuzida qanday tarqalganligini ularni hudud bo'yicha tarqalishi va unga o'z tasirini o'tkazadigan omillarni va o'zaro bo'ladigan munosabatlarni o'rganadi. Tabiiy fanlar ichida ko'prik vazifasini bajaradigan fan biogeografiyadir. Biologik tamoyilni geografik hudud bilan ekologiya bog'laydi va geografiyaning turli qonuniyatlarini tabiat bilan uyg'unlashtiradi. Shuning uchun "geografiya va ekologiya orasidagi,, fan deb atashadi.

Asosiy qism: Biogeografiya fani-bu butun Yer yuzasidagi jamiki tirik organizmlarning tarqalishini va uning yer yuzasidagi o'zgarishlarini o'rganadigan fan hisoblanadi. Biogeografiya geografiya, ekologiya va biologiya fanlarining kesishgan sohasidir. U yer yuzidagi turli jonli organizmlarning tarqalish hududini ularning tabiiy yashash joulari va ekologik sharoitlarini ham o'rganadi. U geografiya va ekologiyaning nazariy tayanch atamaları o'zida shakllantirgan holda biologik va geografik hodisa va jarayonlarni o'zaro bog'liqligini tadqiq qiladi. Biogeografiya fan nafaqat organizmlarning hozirgi ya'ni bugungi kundagi tarqalishini, balki ularning evoyutsiyasi davomida qanday o'zgarib borganligini unga qanday omillar bu jarayonlarga ta'sir qilganligini ham o'rgatadi.

Biogeografiyani ekologiya bilan aloqasi

Ekologiya bu tirik organizmlarning o'zaro va atrof muhit tabiat bilan bo'ladigan aloqalarini o'rganadi. Biogeografiya esa ushbu ekologiya bilan bog'liq jihatlarini o'rganadi. Qanday sharoitda qanday turlari ko'payib, tarqalishini va yo'qolib ketishi bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarga ekologiya e'tibor qaratadi. Biogeografiya esa yer yuzidagi hududlarda va qanday geografik qonuniyat asosida bo'lishini tahlil qiladi. Masalan hayvon yoki o'simlik turlarining tarqalish hududi albatta bu ekologik omillar bilan bog'liq hisoblanadi (tuproq bturi , harorat, namlik), lekin hududlarning joylashuvi esa geografik omillar ta'sir qiladi (iqlim, relief, okean oqimlari kabilar).Biogeografik tadqiqotlar ekologiya bilan bog'liq muammolarni hal etishda muhim o'rin tutadi. Biologik xilma-xillikni saqlash bu ekologiyaga ijobiy ta'siri ham ko'p. Turli xil organizmlarning turlari yo'q bo'lib ketishi oldini olish uchun avvalo tabiiy arealini o'rganiz lozim. Yo'q bo'lib ketishi mumkin bo'lgan turlar uchun qo'rqxona va milliy bog'lar tashkil etilgan.

Geografiya yer yuzining tabiiy holatini, hodisa va jarayonlarini, ijtimoiy-iqtisodiy hodisalarini ularning joylashgan hududlari va o'zaro bir -biri bilan munosabatini o'rganadi. Geografiya biogeografiya uchun hududni taminlaydi. Iqlim, relief, suv va hattoki insonlar faoliyati kabi geografik omillar tirik organizmlarni bevosita tarqalishiga ta'sir ko'rsatadi. Masalan materiklar bo'yicha olsak Avstraliya materiklardan uzoqroqda joylashganligi organizmlarni hududlar bo'yicha tarqalishiga to'siq suv hisoblanadi. Yana hududlar bo'yicha ham tog'lar ham to'siq vazifasini

bajaradi. Bu esa faqat o'sha hudud uchun xos bo'lgan turlar shakllanishiga olib keladi. Ko'rinib turibdiki biogeografiya ham hududlarni o'rganadi geografiya singari. Organizm tarqalishiga bevosita iqlim, suv relyef va tuproq ta'siri bo'ladi. Biogeografiya fani yana lanshaft geografiyasi bilan bog'liq, chunki o'simlik va hayvonot olami tarkibini lanshaft tashkil qiladi. Tirik organizmlarni tarqalishi uchun yana asosiy omillardan iqlim bo'ladi. Biogeografiya fani organizm tarqalishi qonuniyatlari tahlil qilish uchun en avval iqlimni birinchilikka quyadi chunki har bir tirik jonzot yoki o'simlik ma'lum harorat, namlik, atmosfera bosimi va yorug'lik kabi sharoit muhitida yashaydi. Demak iqlim ham chambarchas bog'liq. Yer yuzining shakli ya'ni relyef organizmlar tarqalishiga ta'sir qiladi. Relyef baland tog'liligi, qiyaligi kabi xususiyatlari o'simlik va hayvonot olamiga tarqalib rivojlanishiga ta'siri bor.

Biogeografiya fani hozirgi zamonda global iqlim o'zgarishi, biologik xilma-xillikning kamayib ketishi va inson faoliyatining ekologik oqibatlarini kabi muammolarni o'rganishda ahamiyatli. Masalan turlar arealining qisqarib borishi, bir hududga tabiiy yo'l bilan emas balki inson faoliyati orqali kirib kelgan va u yerda tez to'planib mahalliy ekotizimga zarar beradigan organizmlarning tarqalishi yoki cho'llashish va o'monlar maydoni qisqarib borishi jarayonlari biogeografik tahlil asosida aniqlanadi. Bu esa ekologik barqarorlikni taminlashda va tabiiy resurslarni muhofaza qilish uchun muhim ilmiy asos yaratib beradi.

Xulosa: Biogeografiya ikkita yirik fanning ekologiya va geografiyaning chorrahasida joylashgan. Bu fan o'ziga xos bo'lgan chuqur ilmiy jihatdan ahamiyatli fan. Bu fan tirik organizmlar tarqalishini va omillar bilan o'zaro ta'sirlarini va fazoviy qonuniyatlarni o'rganadi. Geografiya makon vazifasini bajarsa ekologiya biologik mazmunini va qonuniyatlarini yaratadi. Bu fanni integrativ fan deb hisoblasak bo'ladi. Chunki biogeografiya yer yuzasidagi hayotning tizimli geografik va ekologik asoslarini birlashtiradi. Zamonaviy ekologik muammolarni hal qilishda asosan biogeografik jihatdan yondashish kerak. Chunki insoniyat uchun barqaror rivojlanish va tabiiy muhitni saqlab qolishning muhim ilmiy yo'nalishi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Safarov I. B., Raxmonov A. R. Biogeografiya fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalar //Экономика и социум. – 2025. – №. 1-2 (128). – С. 428-431.
2. Qurbonov P. R., Botirov B. Z. The impact of global climate change on urban development //Экономика и социум. – 2025. – №. 5-1 (132). – С. 613-616.
3. Safarov I. B., Chorshanbiyeva R. A. Qashqadaryo viloyatidagi ekologik-geografik muammolar //Экономика и социум. – 2025. – №. 2-2 (129). – С. 153-157.
4. Qurbonov P. R., Qo'ldosheva G. M. Ecological-geographical problems in the residential areas of kashkadarya region //Экономика и социум. – 2025. – №. 5-1 (132). – С. 617-619.

5. Safarov I. B. et al. Iqlim o'zgarishini qishloq xo'jaligiga ta'siri //Экономика и социум. – 2025. – №. 2-2 (129). – С. 158-161.
6. Ashurovish X. P. Global iqlim o'zgarishining agrolandshaftlarga ta'siri va antropogen omil //Hamkor konferensiyalar. – 2024. – T. 1. – №. 3. – С. 155-158.
7. Nazarov M. G., Bozorov M. I., Zokirova O. Z. Qashqadaryo viloyatida joylashgan buloqlarning shakllanishi hamda ularning mihofaza qilish masalalari //Экономика и социум. – 2025. – №. 3-1 (130). – С. 277-282.

